

**WAYS OF FORMING VALUES AND BEHAVIOR IN THE SOCIETY IN THE PROCESS OF SOCIALIZATION OF PUPILS IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS****Matluba G. Khursanova***Master's student**Pedagogical Institute of Termez State University**Termez, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

**Key words:** Concept of Socialization, Polysubjective Approach, Axeological Approach, Cultural Approach, Anthropological Approach, Synergetic Approach, Integrated Approach.

**Abstract:** In the process of socialization, the formation of spiritual and cultural heritage of the younger generation, ways to inculcate traditions in the minds, to give students an understanding of the values and moral norms of society on the basis of systematic approaches.

**Received:** 26.05.22**Accepted:** 28.05.22**Published:** 30.05.22**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TARBIYALANUVCHILARNI IJTIMOYILASHTIRISH JARAYONIDA JAMIYATDAGI QADRIYATLAR, XULQ-ATVORLARNI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI****Matluba G'. Xursanova***Magistratura talabasi**Termiz Davlat Universitetining pedagogika Instituti**Termiz, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

**Kalit so'zlar:** Ijtimoiylashuv tushuncha, Polisubjektiv yondashuv, Akseologik yondashuv, Madaniyatshunoslik yondashuvi, Antropologik yondashuv, Sinergetik yondashuv, Integratsiyalashgan yondashuv.

**Annotatsiya:** Ijtimoiylashtir jarayonida yosh avlodni ma'naviy va madaniy meros, an'analarni ongiga singdirish yo'llarini shakllantirish, tizimli yondashuvlar asosida tarbiyalanuvchilarni jamiyatdagi qadriyatlar va axloqiy me'yorlar haqida tushuncha berish.

## ПУТИ ФОРМИРОВАНИЯ ЦЕННОСТЕЙ И ПОВЕДЕНИЯ В ОБЩЕСТВЕ В ПРОЦЕССЕ СОЦИАЛИЗАЦИИ ВОСПИТАННИКОВ ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ

*Матлюба Г. Хурсанова*

*Студент магистратуры*

*Педагогический институт Термезского государственного университета*

*Термез, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

<p><b>Ключевые слова:</b> социализации, аксиологический культурологический антропологический подход, комплексный подход.</p>	<p><b>Концепция</b> полисубъектный подход, синергетический подход.</p>	<p><b>Аннотация:</b> В процессе социализации формирования духовно-культурного наследия подрастающего поколения, способы привития традиций в сознании, дать учащимся представление о ценностях и нравственных нормах общества на основе системных подходов.</p>
--	--	--

### KIRISH

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev yosh avlod tarbiyasiga katta ahamiyat berib, Shunday degan edi: “yosh avlodni tarbiyalash biz uchun eng asosiy vazifadir” Shundan kelib chiqib, hozirgi vaqtda O‘zbekiston pedagogik jamiyati tarbiyaning odatiy bo‘lgan shakllari va usullarini izlab topish, o‘zib borayotgan avlodda madaniyat va milliy qadriyatlarni hurmat qilish, avaylab asrash tuyg‘ularini o‘stirishga diqqatin iqarratmog‘imiz lozim. Zero, Milliy va umuminsoniy qadriyatlar hayot sinovidan o‘tgan, insoniyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ijtimoiy hodisadir. Shuning uchun hozirda O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim tizimining birinchi maktabgacha ta‘limni rivojining zamonaviy bosqichi qator o‘zgarishlar bilan tavsiflanadi: maktabgacha ta‘lim ochiq turdagi ta‘lim tashkiloti sifatida shakllandi; maktabgacha ta‘lim muassasalarining eng muhim funksiyasi bolalarning hayotiy faoliyatini muhofaza qilish va salomatligini mustahkamlash; tarbiyalanuvchilarni maktab ta‘limiga muvaffaqiyatli tayyorlash va boshqalar. Shuningdek, bugungi kunda Respublikamizda xilma-xil (bolalar bog‘chasi, bolalar bog‘chasi-boshlang‘ich maktab, davlatga qarashli va xususiy) turdagi maktabgacha ta‘lim tashkilotlari ham faoliyat yuritmoqda.

### ASOSIY QISM

Mamlakatimizda ta‘lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar eng avvalo sog‘lom ruhiyat tarbiyasi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratmoqda. Prezidentimiz tashabbusi bilan oxirgi yillarga berilayotgan maqomlar ham mohiyatan barkamol avlod tarbiyasini kafolatlash, unga zarur shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan. Milliy g‘oya va mustaqillik mafkurasi konsepsiyasi g‘oyalarini xalq ongiga singdirishning zarur mexanizmlaridan biri ham shuki, biz farzandlarimizning ma‘naviy barkamolligi uchun maxsus tadbirlarni oz vaqtida ko‘ra olishimiz, yangicha tarbiya texnologiyalarni yarata olishimiz, muhimi–pedagoglarni yangicha mafkura ruhida farzandlarni tarbiyalashga yo‘naltira olishimizdir kerak. Bolaning har tomonlama rivojlanishi uchun ijtimoiy -

hissiy rivojlanish muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy rivojlanishda dolzarb muommalarga duch kelmoqdamiz. Har bir ota-ona farzandini bahtli, quvonchli ko‘rish uchun, u uchun mehribon ota – ona bo‘lish uchun yaxshi muhit yaratishga harakat qilishadi va bundan tashvishlanishadi. Bugungi kunda ota – onalar farzandlarini ijtimoiylashtirish uchun eng to‘g‘ri yo‘l deb, maktabgacha ta‘lim tizimini tanlashmoqda. Chunki, maktabgacha muhitga kirib, bolaning hayotiy tajribasi shakllanadi, u o‘ziga xos, yoshga xos xulq – atvor me‘yorlarini, qiyin vaziyatlardan chiqishning muayyan usullarini o‘rganadi, boshqalarga ta‘sir o‘tkazishni o‘rganadi, dunyoni, o‘zini va boshqalarni o‘rganadi, o‘ziga va boshqalarga ishonish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi. Bolaning ijtimoiy – hissiy rivojlanishi uchun uning atrofidagi muhit ijobiy bo‘lishi muhim ahamiyatga ega, shuning uchun kattalar maxsus pedagogik xushmuomilalik, bolani hurmat qilish va qabul qilish, qulay muhit yaratish kerak. Maktabgacha yoshdagi bolada ijtimoiy rivojlanish go‘dakligidan boshlanadi va bosqichma – bosqich rivojlanib bola yuksalib boradi. Uch yoshidan esa, “men”ini anglay boshlaydi. Ijtimoiy moslashish ijtimoiylashuv mexanizmlaridan biri sifatida, muammoli vaziyatlarni bartaraf etish esa yangi ijtimoiy tajriba – o‘quvchilik maqomini o‘zlashtirish mexanizmi sifatida tadqiq etildi. Ijtimoiy moslashuvga ehtiyoj muayyan tizim bilan o‘zaro ta‘sir negizida, ziddiyatli munosabat sharoitida vujudga kelishi asoslandi va o‘z navbatida, ziddiyatlarni bartaraf etish bilan bog‘liq o‘zgarishlarni amalga oshirishni talab qilishi yoritib berildi. Mazkur o‘zgarishlar shaxs yoki tizim bilan, yoxud har ikkovi o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sir tavsifi bilan aloqador bo‘lishi mumkin. Ya‘ni, yangi muhit sharoitida yuzaga kelgan qiyinchiliklarni yengish zarurati shaxs ijtimoiy moslashuvining boshlang‘ich nuqtasi bo‘lib xizmat qiladi. Ijtimoiylashtirish xulq-atvorini nazorat qilishdan iborat. Bunday nazorat insonga yomon xatti-harakatlarni bajarmaslik imkoniyatini beradi. Agar shaxs xulq-atvorining axloqiyliigi haqida qayg‘ursa, u ijtimoiylashuvga erishgan bo‘ladi. Tarbiyalanganlik ijtimoiylashuvni o‘rganish jarayoni sifatida qaraladigan yosh psixologiyasida olingan natijalarga asoslanadi. Shaxs o‘zini egotsentrik emas, balki tarbiyali tutishi uchun tarbiyalanganlik qanday rag‘batlantirilishi kerak? Tarbiya o‘z mohiyatiga ko‘ra ijtimoiy jihatdan ijobiy ehtiyojlarni hosil qilishidir. Agar ta‘lim shaxsning ongini shakllantirish bo‘lsa, tarbiya uning ongsizlik sferasiga ta‘sir etishdir. Bolalar va ularni tarbiyalaydiganlar orasida hissiy yaqinlik xos. Odatda, 6 oylik bolalar unga g‘amxo‘rlik qiladigan ota-onasiga bog‘lanib qoladilar. Ota-onaning oldida va ular bilan muloqotda bo‘lish bolalarga juda yoqadi, ularning yo‘qligi bolaga yoqmaydi. Ota-ona g‘amxo‘rligini bildiradigan so‘zlar, xatti-harakatlar bola uchun juda katta ahamiyatga ega, uni erkalamaslik, suymaslik salbiy ahamiyatga ega bo‘ladi. Xulq-atvorning dastlabki ijtimoiylashuvi xuddi shu o‘rganish jarayoni orqali sodir bo‘lishi mumkin: xulq-atvorning istalgan shakllari g‘amxo‘rlik va e‘tibor bilan taqdirlanadi, kutilmagan shakllari esa qo‘llab-quvvatlanmaydi. Yaxshi xulq-atvorni rag‘batlantirish va yomon xulq-atvor uchun jazolash axloqiy ijtimoiylashuvning kichik bir qismidir. Biz ko‘rib chiqqan xulq-atvor hamma shaxslarga ham taalluqli emas. insonning har

tomonlama rivojlanishi, atrof-muhit sharoitida yashay olish qobiliyatini ifoda etadi va jamiyat madaniyatini o'zida aks ettiradi. Jamiyat madaniyati tarkibiga esa barcha obyektlar, qadriyatlar, bilim, estetik ongning ko'rinishlari, odamlar faoliyati va ularning natijalari, shaxs hayotiy faoliyatidagi madaniy munosabatlar, o'ziga xosliklar ham kiradi. Ijtimoiylashuv masalalarini o'rganishning falsafiy, pedagogik, sotsiologik va ijtimoiy-psixologik yo'nalishlarini ajratish mumkin. Sotsiologik yo'nalish individning ijtimoiylashuvini, ijtimoiy munosabatlar tizimiga kirishish uchun ma'lum bir ijtimoiy xususiyatlarni o'zlashtirish bilan aloqadorlikda, ijtimoiypsixologik yo'nalish esa, ijtimoiylashuvda ontogenez davrida ijtimoiy me'yor, madaniy qadriyatlarni o'zlashtirish jarayonida aks etishini ifoda etadi. Ijtimoiylashuv insonning ta'lim, madaniyat, kommunikatsiya ta'siri ostida shakllanish jarayoni bo'lib insonlarning bir-birlari bilan muloqotda bo'lishlarini ifodalab, jamiyatning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun zarur bo'lgan namunali xulq, psixologik mexanizm, ijtimoiy norma va qadriyatlarni o'zlashtirish jarayonidir. Ijtimoiylashuv jarayoni o'zining xususiyatlariga, tarkibiga, qonuniyatlariga, omillariga, shart-sharoitlariga, boshqarilishiga va ijtimoiylashgan insonda namoyon bo'lishiga ko'ra o'ta murakkab jarayondir. Ta'lim va tarbiya haqida gap ketganda esa, bu sohadagi ijtimoiylashuv insonning dunyoga kelgan vaqtdan boshlab ijtimoiy belgilangan qadriyatlar, yangidan shakllanuvchi tajribalarni, ya'ni tarbiyalanganlik, ta'lim olganlik, ma'lumotlilik, rivojlanganlik hamda ularning kelgusidagi butun umri mobaynida muttasil o'zgarib borishi jarayoni va yuzaga kelish natijasidir. Bu holda shaxsga ijtimoiy munosabatlarning va pedagogik tizimning subyekti sifatida, tajriba egallashda faollik va mustaqillikni namoyon qiluvchi hamda o'z-o'zini shakllantiruvchi, shu bilan birga, o'z hayot yo'li uchun javobgarlikni his etuvchi subyekt sifatida qaraladi. Shuningdek, ba'zi olimlar "ijtimoiylashuv" va "ijtimoiy moslashuv" tushunchasini alohida-alohida talqin qilishga harakat qilishsa, ba'zilar ularni bir tushuncha sifatida baholashadi. Birinchi guruh nazariyasi tarafdorlarining fikricha, ijtimoiylashuv ijtimoiy me'yor, xulq-atvor tamoyillari va qadriyatlarni uzatish, uni inson tomonidan egallanishiga qaratilgan murakkab jarayon bo'lib, u alohida shaxsga ma'lum bir jamiyat fuqarosi sifatida o'zini namoyon etish imkoniyatini beradi. Ijtimoiy moslashuv esa, shaxsga jamiyat tomonidan berilgan mazkur imkoniyatlarning amalga oshirilish jarayonini o'zida ifoda etadi.

Ijtimoiylashuv tushunchasi ijtimoiy-psixologik kategoriya bo'lib, bu shaxsning uni o'rab turgan tashqi ijtimoiy muhit tasirlariga berilishi, uning norma va qoidalarini o'zlashtirishga moyilligi, o'zlashtirganlik darajasini ifodalovchi jarayon hisoblanadi. Ijtimoiy (lotincha socialis umumiy) tushunchasining asosini shaxslar, shaxslararo munosabatlarning turli shakllari bilan bog'liq jarayonlar tashkil etadi. Bu o'rinda shuni ham aytib o'tish joizki, bolaning jamiyatga kirish jarayoni, uning muayyan ijtimoiy tajribani qola kiritishi (bilim, qadriyat, yurish-turish qoidalari) bilan bog'liqdir. Buni ijtimoiylashuv deyiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni ijtimoiylashuv jarayonida jamiyat, oila, mahalla, va maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogiklarning

o'zni beqiyosdir. Yosh avlodni tarbiyalashda ijtimoiylashuv jarayonida bola jamiyat, ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy maqom, ijtimoiy xulq atvorning me'yor va qoidalari haqidagi bilimlar, tajribalarni dozalastirib boradi. Maktabgacha yoshi eng qizg'in ijtimoiy rivojlanish. Maktabgacha bolalik davrida bolaning nutqi va tafakkuri faol rivojlanmoqda. Bolaning shaxsiyatining rivojlanishi turli xil faoliyatlarda tengdoshlari va kattalar bilan muloqot qilishda eng samarali hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolaning ijtimoiy rivojlanishini umumiy tushunchasiz tasavvur etib bo'lmaydi ijtimoiylashuv. Ijtimoiylashuv – bu o'quvchining jamiyatda mavjud bo'lgan ijtimoiy-axloqiy me'yorlar va xulq-atvor qoidalari o'zlashtirish jarayoni. Ijtimoiylashuv - bu butun hayot davomida davom etadigan doimiy jarayon. Maktabgacha yoshdagi bolalikda bu birinchi navbatda ijtimoiy hayot normalarini o'zlashtirishdir. Bolaning ijtimoiy rivojlanishida yetakchi o'rinni o'z xalqining axloqiy qadriyatlarini o'zlashtirish va keyinchalik umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni bilish va egallash egallaydi. Ijtimoiy taraqqiyot bilan chambarchas bog'liq maktabgacha yoshdagi bolalarning axloqiy tarbiyasi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning axloqiy xulq-atvori tajribasi kattalar bilan muloqot jarayonida shakllanadi va tengdoshlari bilan turli xil qo'shma tadbirlar va munosabatlarda shakllantirib borishimiz darkor. Yoshlik davrida bolalar oilada kattalar bilan, do'stlari va qarindoshlari davrasida, bolalar bog'chasida muloqot qilishlari kerak – bu kognitiv aloqa deb ataladigan asr. O'yin davomida, sayr paytida bolalar ko'p savollar berishadi shunday paytda biz pedagoglar ularning savoliga to'liq tushuncha berishimiz va qadriyatlar asosida singdirishimiz kerak bo'ladi. Ijtimoiylashtirish jarayonida tarbiyalanuvchilar tomonidan jamiyatdagi qadriyatlar, xulq-atvorlarni shakllantirish yollarini amalga oshirishning yaxlit tizimi mavjud bo'lib ularga qo'yadigan kiradi.

Akseologik yondashuv (kommunikativ, gomoseksualist, milliy, huquqiy madaniyat qadriyatlari).

Madaniyatshunoslik yondashuvi (inson tug'ilgan va yashagan joyi va vaqtining barcha sharoitlari, uning yaqin atrof-muhitining o'ziga xos xususiyatlari, mamlakatning tarixiy o'tmishi, o'z xalqining qadriyat yo'nalishlari, dostonlar va boshqalar).

Antropologik yondashuv (diagnostika, turli xillarni hisobga olish - yoshi, ta'lim jarayonida aqliy, jinsi, milliy-shaxsiy xususiyatlari).

Sinergetik yondashuv (pedagogik jarayonning har bir sub'ekti - bolalar, ota-onalar, o'qituvchilar) o'z-o'zini rivojlantiradigan quyi tizimlardan o'tish rivojlanish o'zini o'zi rivojlantirishga).

Polisubjektiv yondashuv (barcha omillar ta'sirini hisobga olgan holda) ijtimoiy rivojlanish: oila, tengdoshlar, maktabgacha ta'lim muassasasi, iqlim, jamiyat, davlat va boshqalar).

Tizimli va tizimli yondashuv (tuzilish maqsadlari, vazifalari, mazmuni, vositalari, usullari, tashkil etish shakllari, o'qituvchilarning oila bilan o'zaro ta'siri shartlari va natijalari).

Integratsiyalashgan yondashuv (ta'limning turli bo'limlari aloqalari, vatanparvarlik bilan ijtimoiy, estetik, mehnat, axloqiy, jismoniy, jinsiy, atrof-muhit va boshqalar)

Faoliyat yondashuvi (bolaning tashqi dunyo bilan munosabatlarining dinamikasini aniqlash, faoliyat sub'ekti tomonidan o'z ongidagi ehtiyojlarni amalga oshirishni amalga oshiradi).

Ekologik yondashuv (vosita sifatida ta'lim maydonini tashkil etish muammolarini hal qiladi shaxsning ijtimoiy rivojlanishi).

Farzandlarimiz ongida axloqiy qadriyatlarni shakllantirish uchun:

Vatanga, ota-onaga, o'tgan avlodlariga hurmat, muhabbat tushunchalari va tasavvurlarini kengaytirish;

burch, vijdon, insof, mas'uliyat haqidagi tasavvurlarni vujudga keltirish;

do'stlik, o'rtoqlik, qo'ni-qo'shnicilik munosabatlari haqidagi tasavvurlarni kengaytirish hal qilinishi kerak bo'lgan dastlabki vazifadir.

Estetik qadriyatlar farzandlarimizning estetik sezgi va idrokini tarbiyalash, tashqi va ichki go'zalligini shakllantirishdir. Ularda estetik qadriyatlarni shakllantirish uchun: bola ongida otabobolarimizdan bizgacha yetib kelgan amaliy, me'morchilik, musiqa va san'at asarlarini, shuningdek, turli xarakterdagi bayramlarni asrab-avaylash tuyg'usini shakllantirish; go'zallikka baho berish, haqiqiy go'zallikni soxta go'zallikdan ajrata olish;

tabiatning nozik, nafis go'zalliklarini ko'rish, his etishni rivojlantirish talab etiladi. Qadriyatlar amal qilish doirasiga ko'ra, milliy va umuminsoniy turlarga bo'linadi. Insonning qaysi millatga mansub ekanligi haqida tasavvuri faqat g'oyagina emas, balki tuyg'u hamdir. Insonda milliy ong.

### XULOSA

Fan va amaliyotning hozirgi holati maktabgacha ta'lim dasturlar, texnologiyalar, vositalar, shakllar va usullarni ishlab chiqish va amalga oshirishda ulkan salohiyat mavjudligini ko'rsatadi maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy rivojlanishi... Ushbu yo'nalish federal va mintaqaviy kompleks va qisman tarkibiga kiritilgan davlat ta'lim standarti talablarida aks ettirilgan dasturlarda mujassamdir. Darhaqiqat, ijtimoiylashuv jarayonida asosiy maqsad insonni ijobiy rivojlanishga qaratilgan sharoitlar yaratish jarayoniga yo'naltirishdir. Barkamol avlodni tarbiyalash-buyuk davlat poydevorini, farovon hayot asosini qurish demakdir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni tarbiyalash ikki jihat yosh avlodni jismonan sog'lom etib, tarbiyalash va ularni ma'naviy barkamol etib voyaga yetkazishni ozida mujassamlashtiradi. Inson ma'naviy barkamol bolishi uchun eng avvalo jismonan sog'lom bolishi lozim. Bu oddiy hol, ammo u jamiyatimiz rivoji kelajagini ta'minlovchi omildir. Bu tushunchaning umumiy ma'nosizda insonning tug'ilib, o'zini bevosita o'rab turgan tashqi muhit tasirida ulg'ayishi, shu jamiyat, shu atrof-muhit qurshovida tarbiyalanishi yotadi

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: «O‘zbekiston», 2017 yil
2. Shirikova G.A. “Maktabgacha psixologning qo‘llanmasi” 2008 yil
3. O.M. Mahalliy ijtimoiy-madaniy an‘analarning qadriyat ustunliklari asosida maktabgacha ta’lim muassasasida bolalarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini modellashtirish Pedagogika. Psixologiya 2013. 1-son (28). 27-50-betlar
4. Raimqulova H. Ijtimoiy va oila pedagogikasi. Uslubiy qo‘llanma. Namangan, 2007.
5. <https://minikar.ru/uz/moda-i-krasota/duhovno-nravstvennoe-vospitanie-doshkolnikov-na-osnove-duhovnyh/>
6. “Zamonaviy oilada, farzand tarbiyasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish masalalari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami